O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI

OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVASIYALAR VAZIRLIGI

ANDIJON DAVLAT CHET TILLARI INSTITUTI

INGLIZ TILI VA ADABIYOTI FAKULTETI

KUNDUZGI TA'LIM SHAKLI

60111800 – XORIJIY TIL VA ADABIYOTI (INGLIZ TILI)

TA'LIM YO'NALISHI BITIRUVCHI TALABALARI UCHUN

IKKINCHI MUTAXASSISLIK FANLARIDAN

YAKUNIY DAVLAT ATTESTATSIYA

# D A S T U R I

Andijon-2026

Andijon davlat chet tillari Instituti Ilmiy Kengashining 2026 yil 22 01 dagi 5-sonli yig'ilish qaroriga muvofiq tasdiqlangan

Dastur Andijon davlat chet tillari institutida ishlab chiqilgan.

**Tuzuvchilar:**

**Kafedra mudiri:** **M. Ishanjanova**

**Fakulteti dekani:** **M.S. Pazilov**

**O'quv ishlari bo'yicha prorektor v.v.b:** **K.N.Karimov**



## KIRISH

Mazkur dastur Filologiya va tillarni o'qitish: ingliz tili ta'lim yo'nalishi bitiruvchilarining taxsil olish mobaynida ikkinchi mutaxassislik va ixtisoslik fanlarini o'qib o'zlashtirganlik darajasini aniqlash uchun o'tkaziladigan Yakuniy Davlat Attestatsiyasi sinovlari bo'yicha ishlab chiqilgan.

2025-2026 o'quv yili yakunida bitiruvchilardan O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovasiyalar vazirligining 2022-yil 29 avgustdagi 1 -son bilan tasdiqlangan namunaviy o'quv rejadagi umumkasbiy va ixtisoslik fanlaridan o'tkaziladi.

**Yakuniy Davlat Attestatsiyasi sinovlarida o'tkaziladigan fanlar tarkibi:**

**1. Nemis(fransuz) leksikologiyasi va stilistikasi;**

**2. Fransuz adabiyoti;**

**3. Fransuz tilida o'qish va yozish amaliyoti;**

**4. Fransuz tili o'qitishning integrallashgan kursi.**

### 1.Nemis(fransuz) leksikologiyasi va stilistikasi

**1-mavzu. O'rganilayotgan til stilistikasi fani, predmeti va vazifalari**

Stilistika kursining dolzarbligi va vazifalari. Stilistika zamonaviy tilshunoslik yo'nalishlari nigohida. Stilistikaning boshqa fanlar bilan bog'liqligi: stilistika va kommunikativ lingvistika, stilistika va pragmalingvistika, stilistika va lingvokulturologiya. Stilistika turlari: qiyosiy stilistika, amaliy stilistika, furktsional stilistika, individual uslub stilistikasi. Stilistik tahlil metodlari.

**2-mavzu. Metodologiya.**

Uslubiy leksika tarkibi: Adabiy so'zlar, neytral so'zlar, va og'zaki so'zlar. adabiy so'zlarning stilistik jihatlari va turlari: atama, arxaizm, neologizm, poetik so'zlar tushunchalari va ularning matndagi stilistik vazifalari. Og'zaki so'zlarning stilistik xususiyatlari va turlari: sleng, vulgarizm, evfemizm, sheva va jargon tushunchalari va ularning matndagi stilistik vazifalari. Tilda me'yor tushunchasi. Shaxsiy yondashuv va me'yor. Umumiy, adabiy, og'zaki va adabiy uslublar xususiyatlari. Registr tushunchasi.

**3-mavzu. Funktsional uslub tushunchasi**

Funktsional uslub va uning turlari. Badiiy uslub xususiyatlari: she'riy, drama va nasr uslublarining asosiy til xususiyatlari. Ilmiy uslub xususiyatlari va vazifalari. Publitsistik uslub xususiyatlari va vazifalari. Axborot vositalari uslub xususiyatlari va

vazifalari. Axborot vositalari matnida janr turlari va xususiyatlari. Rasmiy uslub vazifalari, rasmiy uslub turlari va ularning lisoniy xususiyatlari.

**4-mavzu. Leksik stilistik vositalar.**

Ifoda va stilistik vosita tushunchasi. Stilistik vazifa tushunchasi va turlari. Leksik ma'no turlari. Stilistik vositalarning til sathlari aro turlanishi: metafora, metonimiya, ironiya, epitet, mubolag'a, oksimoron, antonomasiya, zevgma, so'z o'yini tushunchasi, lisoniy ahamiyati va vazifalari.

**5-mavzu. Leksik vositalar ogzaki nutqda va fonetik mashqlar.**

O'xshatish, perefraza, litota, gradatsiya, antiteza, allyuziya, o'zlashtirma gap tushunchalari, ularning lisoniy ahamiyati va vazifalari.

**6-mavzu. Sintaktik stilistik vositalar.**

Sintaktik stilistik vositalarning lisoniy ahamiyati va vazifalari. Gap qurilishidagi o'zgarishlarga asoslangan stilistik vositalar: bir bosh bo'lakli gap, inversiya, parallel konstruktsiya, xiazm, takror, sanash, polisindeton, asindeton va ritorik so'roq gap. Og'zaki nutqda gap tarkibi o'zgarishlariga asoslangan stilistik vositalar: ellipsis, tugallanmagan gap, ajratilgan kostruktsiya.

**7-mavzu. Fonetik stilistik vositalar.**

Yufoniya, alliteratsiya, onomatopiya tushunchalari va ularning lisoniy ahamiyati va vazifalari.

**2. Fransuz adabiyoti;**

**1-Modul. La littérature épique française du Moyen Âge.**

**1-mavzu. O'rta asrlar fransuz qahramonlik adabiyoti**

"O'rta asrlar", "o'rta asrlar madaniyati" va "o'rta asrlar adabiyoti" tushunchalari. O'rta asrlar adabiyotini davrlashtirish.

Epik arxaikadan epik klassikaga o'tish. Xalq orasida qahramonlik dostonlarining paydo bo'lishi. Qahramonlik dostonlarining turkumlari.

Frantsuz qahramonlik eposi, uning asosiy turkumlari. "Rolan haqida qo'shiq" - frantsuz qahramonlik eposining buyuk yodgorligi.

**2-mavzu. Les romans courtois du Moyen Âge.**

**O'rta asrlar ritsarlik (kurtuaz) adabiyoti. O'rta asrlar ritsarlik romanlari**

O'rta asrlar ritsar (kurtuaz) adabiyoti. Yangi ritsarlik ideallarining shakllanishi. Salb yurishlari. Provansda ritsarlik poeziyasining dunyoga kelishi. Trubadurlar ishqiy va siyosiy lirikasining asosiy janrlari va motivlari. Ritsarlik romanining paydo bo'lishi, uning o'ziga xos janr xususiyatlari va evolyutsiyasi. Romanlarda zamon va makon xususiyatlari. O'rta asrlar shahar adabiyoti. Shahar adabiyotining asosiy janrlari. Fabliolar va ularning xalq ijodiyoti bilan aloqasi.



**2-Modul.Histoire littéraire XI-XVI : auteurs urbains et récits brefs**

**3-mavzu. Uyg'onish davri frantsuz adabiyoti.** La Fontaine, cigale et renard

XV-XVI asrlar G'arbiy Yevropa tarixida buyuk o'zgarishlar davri sifatida.Yangi gumanistik madaniyatning shakllanishi. Uyg'onish davri realizmining o'ziga xos xususiyatlari. F.Rable – frantsuz gumanistik adabiyotining eng yirik vakili sifatida. «Gargantua va Pantagruelь» asari. Jamiyatdagi illatlar, din peshvolarining adolatsizliklarining satirik ifoda etilishi.

**4-mavzu. Pierre de Ronsard – chef de file du groupe de la Pléiade.**

**Pier de Ronsar va Joashen dyu Belle ijodi**

P. Ronsar – frantsuz gumanistik adabiyotining yirik vakili sifatida. Ronsar «Pleyada» guruhi shoirlari yetakchisi. Pьer de Ronsar va Joashen dyu Belle ijodida frantsuz gumanizmi g'oyalarining tarqalishi.

**3-Modul. La littérature française du XVIIe siècle.**

**5-mavzu. XVII asr frantsuz adabiyoti. Jan Rasin hayoti va ijodi.**

XVII asr adabiyotida realizm va barokko usullari. Jan-Batist Rasin hayoti. Uning «Andromaxa», «Ifigeniya», «Fedra» nomli tragediyalari.

**6-mavzu. Pyer Kornel ijodi**

Pyer Kornel frantsuz tragediya janri asoschisi. Uning Frantsiya Akademiyasiga a'zo bo'lishi (1647). "Sid" va "Goratsiy" tragediyalari.

**7-mavzu. Molyer va Jan Lafonten ijodi**

Frantsuz milliy teatrining asoschisi, yirik dramaturg-komediograf va aktyor. Riyokorlik, diniy jaholat, fisqu-fasod botqog'iga botgan aristokratlar hayotini kulgi ostiga oluvchi "Ezmalar", "Erlar uchun saboq", "Tartyuf", "Don Juan", "Mizantrop", "Xasis" kabi satirik komediyalarining yaratilishi. "Zo'raki tabib" komediyasi. Jan Lafonten ertak janri asoschilaridan biri sifatida. Uning o'z davri shoirlari to'garagi bo'lgan "Ritsarlar davrasi"da qatnashishi. Lafonten yaratgan ertaklar g'oyasi. Lafonten masallarida tarbiya masalalari.

**4-Modul. La littérature française du XVIIIe siècle.**

**8-mavzu. XVIII asr frantsuz adabiyoti. Monteskye va Volter ijodi.**

G'arbiy Yevropa mamlakatlaridagi tarixiy, ijtimoiy-siyosiy holat. G'arbiy Ovrupa ma'rifatparvarligining ahamiyati. XVIII asrda falsafiy oqimlar. Ma'rifatparvarlik estetikasida ratsionalistik va realistik yo'nalishlar. Ma'rifatparvarlik harakati tarkibidagi adabiy oqimlar (klassitsizm, realizm, sentimentalizm).

Sharl Lui de Sekonda, baron de Monteskьyo yozuvchi, faylasuf, xuquqshunos, siyosatshunos sifatida. "Qonunlar ruhi", "Fors nomalari" asarlari. Xokimiyatning bo'linish printsiplari to'g'risidagi g'oyalari.

Fransua Mari Arue Volterning faylasuf, ma'rifatchi, shoir, satirik, tarixshunos va publitsist sifatidagi keng qirrali faoliyati.

**9-mavzu. Jan-Jak Russo va Bomarshe ijodi**

Jan-Jak Russo buyuk frantsuz faylasufi, yozuvchi va ma'rifatchisi. Tabiatga qaytish to'g'risidagi falsafiy qarashlari. Jamiyatda ijtimoiy tenglik o'rnatishga bo'lgan chaqiriqlari.

"Figaroning uylanishi" pyesasi Pьer Ogyust Karon Bomarshe nomining jahon teatri san'ati tarixida buyuk dramaturglar qatorida e'tirof etilishiga sabab bo'lganligi. Asarda mamlakatdagi ijtimoiy hayotning keskin tanqid qilinishi.

**5-Modul. Littérature française de la Renaissance à nos jours.**

**10-mavzu. Viktor Gyugo ijodi**

Viktor Mari Gyugo frantsuz romantizmi asoschisi. Frantsiya Akademiyasia'zosi. Isyonkorlik ruhi bilan sug'orilgan "Kromvel" (1827), "Sharq motivlari" (1829), "Ernani" (1830) va boshqa she'riy va dramatik asarlarida davrning dolzarb masalalarining aks ettirilishi. "Parijdagi Bibi Maryam ibodatxonasi" (1831) romanidagi muhabbat fojeasi. "Xo'rlanganlar" (1862), "Dengiz zahmatkashlari" (1866), "Kulib turuvchi odam" (1869) romanlarida oddiy frantsuzlarning og'ir hayoti va kurashining tasvirlanishi. Gyugo qahramonlarining turmushdagi pastkashliklar va illatlarga qarshi kurashishi.

**11-mavzu. Stendal va Aleksandr Dyuma ijodi**

Mari-Anri Beyl – Stendal psixologik roman asoschisi. Ilk asari "Rim, Neapal va Frantsiya". Zamondosh odamlarning sevishga qodir emasligi – Stendal romanlarining yetakchi mavzusi sifatida. "Qizil va Qora", "Parma ibodatxonasi" – Stendalning yetakchi romanlari. Aleksandr Dyumaning "Uch mushketyor" romani.

**12-mavzu.Histoire littéraire, XIXe siècle**

**Onore de Balzak va Prosper Merime ijodi.**

Fransuz realizmi namoyondasi. Balzakning ijodiy merosi janr jihatidan ulkan va xilma-xilligi: romanlar, povestlar, dramalar. Yozuvchining ko'pgina roman va povestlari umumiy g'oya asosida birlashtirilganligi va «Inson komediyasi» deb nomlangan ko'p jildli epopeyasi.

Prosper Merime novella janrining mohir ustasi. Merimening Ispaniya mavzularida yozilgan «Klara Gasul teatri» (1825) pьesalar to'plami romantik ruh bilan yo'g'rilganligi. Uning tarixiy mavzularda yozilgan «Jakeriya» (1828) dramasi va «Karl IX saltanati yilnomasi» (1829) romani. «Mozaika» (1833) to'plami hamda «Karmen» (1845) novellasida xalq qahramonlarining obrazlari.

**13-mavzu. Gyustav Flober va Emil Zolya ijodi**

Floberning «Bovari xonim» (1857) romani va uning yozuvchiga shuhrat keltirishi. «Salambo» (1862) romanida uzoq o'tmishda (miloddan avvvalgi 3-asrning 2-yarmida) Qadimiy Rimning Karfagenga qarshi kurashlari tarixi tasvirlanishi, pok muhabbatni



tahqirlagan zo'ravonlik, nohaqlik fosh etilganligi. Iste'dodli stilist bo'lgan Floberning jahon adabiyotida realizm taraqqiyotiga katta ta'sir ko'rsatishi.

Emil Zolya – naturalizm oqimi asoschisi. Ilk ijodi romantizm ruhida: «Ninon ertaklari» (1864), «Klodning tavbasi» (1865), «Marhumning vasiyati» (1866) va 60-yillarda naturalistik ruhdagi «O'liklar vasiyati» (1866), «Tereza Raken» (1867), «Madlen Fera» (1868) kabi romanlarning yaratilishi. «Rugon-Makkarlar» 20 jildli romanlar turkumida (1871-93).

**14-mavzu. Gi de Mopassan va Alfons Dode ijodi**

Gi de Mopassanning adabiyotga 1880 yilda she'rlar to'plami va «Do'ndiq» novellasi bilan kirib kelishi. Mopassan 6 roman, 18 hikoyalar to'plami, ocherk va p'esalar, ko'plab maqolalar va boshqa asarlar muallifi. Mopassan ma'naviy qashshoq, munofiq kishilar obrazining butun bir silsilasini yaratganligi («Javohirot», «Oila bag'rida», «Vasiyatnoma» «Bochkacha», «Iblis» va b.). Uning «Daydi», «Shkaf», «Gadoy» kabi novellalarida turmush qa'riga uloqtirilgan notavonlar hayoti tasvirlanishi. Uning «Hayot» (1883), «Azizim» (1885), «Mont-Oriol» (1886) romanlari.

Alfons Dode – frantsuz romannavisi va dramaturgi, naturalizm oqimi namoyondasi. «Tegirmonim maktubi» (1866) nasriy asarlar to'plami unga katta muvaffaqiyat keltirishi. Dode pьesalaridan eng mashhuri – «Arlezianka». Uning «Kichik Fromon va katta Risler», «Safo», «Nabob», «Surgundagi qirollar», «Taraskonlik Tartarenning g'aroyib sarguzashtalari», «Tartaren Alьp tog'larida» romanlari.

**15-mavzu. : Méthodes et problèmes en littérature**

**Romen Rollan, Roje Martin du Gard va Antuan de Sent Ekzyuperi ijodi.**

Romen Rollanning "Jan-Kristof" romani orqali insonning qadr-qimmati va erkinligi uchun kurashi, adolatli hamda insonparvar jamiyat qurish uchun olib borgan faoliyati. R. Rollan asarlarida avlodlar o'rtasidagi munosabatlar masalasi. Yozuvchining tinchlik uchun kurashi.

Roje Marten dyu Gar asarlarida ijtimoiy-siyosiy keskinliklar talqini. Uning "Tibolar oilasi" romanida oilaviy xronikani yaratish masalasi. Ota-onalar va farzandlar o'rtasidagi kelishmovchiliklar va ularga muallifning munosabati. Antuan Sent-Ekzyuperi asarlarida inson xayotining ma'naviy asoslari tasviri. Muallifning "Kichik shahzoda" romanida shaxsning kamolga yetishish yo'llari chizgisi.

**3. Fransuz tilida o'qish va yozish amaliyoti;**

**1-modul. O'qish moduli.**

O'qish moduli 7-8 semestrlar davomida o'qitiladi. Mazkur modulning maqsadi talabalarning talabalarning B2 daraja talabiga javob beruvchi matnlarni o'qib, tushunishlari va turli mavzularga oid matnlarni yoza olish mahoratiga ega bo'lishlari va egallangan o'qish va yozish ko'nikmalarini kasbiy va ilmiy faoliyatda erkin qo'llay olishlarini ta'minlashdir.

**4-kurs davomida:**

- asarlardan keltirilgan parchalar;
- internet matnlari (bloglar, vebsaytlar);
- qo'llanmalar, instruktsiyalar (texnik vosita va asboblar uchun);
- entsiklopedik maqolalar;
- professional mavzulardagi maqolalar (chet tili o'qitish, o'qitish muammolari, metodlari, o'qitish tizimidagi yangiliklar yoritiladigan jurnallarda berilgan maqolalar);
- ma'ruzalarda keltirib o'tilgan g'oyaga nisbatan bildirilgan fikrlar va muhokama qilingan hisobotlar.

O'qish modulida quyidagi o'qish maqsadlari ilgari suriladi:

- ekstensiv o'qish (badiiy o'qish)
- intensiv o'qish (ma'lumot uchun o'qish, tushunish uchun o'qish)
- tayyorlangan dars rejalarining muayyan kontekstga muvofiqligini baholash;
- ma'lum kontekst uchun dars rejasini tuzish.

4-kursda quyidagi strategiyalarni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilishi maqsadga muvofiq bo'ladi:

- muallif fikrini yoqlash yoki inkor qilish va uni asoslash;
- tahlil qilish;
- sintez qilish;
- o'qish sifatini aniqlash.

**2- Modul. Yozish moduli**

Yozma nutq amaliyoti moduli 7-8 semestrlar davomida o'qitiladi. Birinchi kurs yakunida talabalar CEFR talablriga ko'ra yozish ko'nikmalarini B2 darajada egallasalar, 4-kurs yakuniga kelib CEFR B2 darajasi talabiga javob beruvchi turli matnlarni yoza olish mahoratiga ega bo'ladilar.

**4-kurs davomida**

Xatlar va rasmiy hujjatlar:

- rasmiy xatlar;
- ariza;
- ilova xati;
- tavsiyanoma;
- tushuntirish xati va b.

Mazkur modul davomida talabalar yakka holda, juftlikda va kichik guruhlarda ishlaydilar.

O'qish va o'qitishga yondashuv:

- topshiriqlarga asoslangan amaliy ish;
- turli matnlar tahlili ( gazeta, jurnal maqolalari)
- matnlarni o'rganilayotgan chet tili va ona tilida parallel, qiyoslaganholda tahlil qilish;



- darsdan tashqari yozma vazifalar;
- ilmiy ish rejasini puxta tuza olish;
- o'z ilmiy ishi mavzusiga oid adabiyotlar bilan tanishib, ularni tahlil qilish;
- o'z ustida va guruhdagi do'sti bilan ilmiy ish mavzusi va yozish uslubi ustida ishlashni bilish;
- ma'lumotlarni turli grafik va jadval shaklida taqdim etish;
- ilmiy ish uchun annotatsiya yozishni bilish;
- plagiat (ko'chirmakashlik)ning oldini olish hamda uning salbiy oqibatlari haqida bilish;
- o'rganilayotgan chet tili bo'yicha yakuniy davlat attestatsiyasiga tayyorgarlik ko'rishi kabi masalalar tashkil etadi.

Ilmiy ish yozish.

Muvaffaqiyatli ilmiy ish tahlili:

- ilmiy ishning maqsadi;
- kirish;
- adabiyotlar tahlili;
- plagiat, ko'chirmakashlik
- tadqiqot natijalari;
- ilmiy xulosalar

**4. Fransuz tili o 'qitishning integrallashgan kursi**

**1 - Modul. Fransuz tilini o'rganish jarayonlari moduli (2 kurs)**

**1-mavzu. Introduction. Apprendre et enseigner une langue etrangere.**

Kirish. Fransuz tili, uni o'rganish va o'qitish, til o'rganuvchining xususiyatlarini o'rganish.

**2-mavzu. La dimention cognitive dans l'apprentissage des langues étrangères.**

Til o'rganishdagi kognitiv omillar

- transfer, interferensiya va umumlashtirish hodisalari;
- induktiv va deduktiv til o'rganish;
- qobiliyat va intellekt;
- tizimli yoddan chiqarish hodisasi.

**3-mavzu. Les stratégies et les methodes de l'enseignement d'une langue étrangère**

Fransuz tilini o'rganish uslublari va strategiyalari

- chet tilini o'rganish uslublari;
- chet tilini o'rganish strategiyalari;
- muloqot strategiyalari.

**4-mavzu. Les criteres psycologiques dans l'apprentissage de la langue**

Til o'rganishda psixologik omillar

- o'zini hurmat qilish;
- tortinchoqlik;
- tavakkalchilik;
- hayajon;

- munosabat va motivatsiya

**5-mavzu. Les erreurs en classe**

Til o'rganishdagi xatolar:
- xato turlari;
- xatolarni aniqlash va tasvirlash;
- xatolik sabablari;
- turg'un xatolar.

**6-mavzu: Les particularites de l'age dans l'enseignement de la langue etrangere**

Fransuz tilini o'rganishda yosh xususiyatlari, qiyoslash va taqqoslash turlari;
- yosh gipotezasi;
- bilingvizm.

**2 - Modul. Chet tillarni o'qitish tamoyillari va yondashuvlar moduli (2 kurs)**

**7-mavzu. Parcours historique des méthodes de langue**

Fransuz tilini o'qitish uslublari o'rtasidagi farqlar va fransuz tilini o'qitishidagi tarixiy uslublarning bosqichlari.

**8-mavzu. Méthodologie traditionnelle (grammaire – traduction)**

Fransuz tilini o'qitishda ana'naviy usulning amaliyotda qo'llanilishi

**9-mavzu. Méthodologie directe**

Fransuz tilini o'rgatishda xorijiy tajribalar:
grammatik-tarjima uslubi;
darsni to'liq chet tilida o'tish uslubi;
audio-lingvistik uslub (eshitib gapirish);
kommunikativ uslub.

**10-mavzu. Tendances actuelles dans l'enseignement-apprentissage de FLE**

Mahalliy muhitda qo'llanilayotgan uslublar va ularning tahlili:
grammatikani deduktiv va induktiv tarzda o'qitish;
tarjima orqali til o'qitish;
qayta gapirib berish;
fonemalar va fonetik usullar;
matnlarni yodlash;
o'qituvchidan so'ng takrorlash;
kommunikativ mashqlar yordamida til o'rganish

**11-mavzu. L'utilisation des methodes modernes dans l'enseignements des langues.**

Mahalliy muhitda qo'llanilayotgan uslublar va ularning tahlili:
grammatikani deduktiv va induktiv tarzda o'qitish;
tarjima orqali til o'qitish;
qayta gapirib berish;
fonemalar va fonetik usullar;
matnlarni yodlash;
o'qituvchidan so'ng takrorlash;
kommunikativ mashqlar yordamida til o'rganish.

**12-mavzu. Analyse des nouvelles approches de l'enseignements des langues**



Fransuz tilini o'qitishda zamonaviy uslublarning ijobiy va salbiy jihatlari muhokamasi

**13-mavzu. La langue et la culture**

Fransuz tili va madaniyati.

**14-mavzu. Approche actionnelle (basée sur les tâches)**

Fransuz tilini o'rganishga eng zamonaviy usullning hayotga bog'lagan holda o'qitish va o'rganish jarayonlari

**15-mavzu. Le role de la langue maternelle dans l'apprentissage des langues**

Fransuz tilini o'rganishda ona tilining o'rni

**3 – Modul. Til sath (yarus)larini o'qitishga kommunikativ yondashuv moduli (3 kurs)**

**Grammatikani o'qitish**

**1-mavzu. L'enseignement de la grammaire en classe FLE**

Fransuz tili grammatikasini o'qitish (grammatika va ma'no; grammatika va funksiya)

**2-mavzu. La présentation de la grammaire en classe**

Fransuz tili grammatikasini o'qitishga deduktiv va induktiv yondashuv

**3-mavzu. Faire les outils pour la grammaire**

Grammatikani kontekst orqali o'rgatish

**4-mavzu. Faire fiche pédagogique sur la grammaire**

Lingvistik intuitsiya; til hodisalari

**5-mavzu. Travail sur les exercices de grammaire**

Grammatik mashqlar turlari va mashqlarni ishlash usullari

**6-mavzu. Présenter une lecon de grammaire**

Grammatik mavzuni yoritib beruvchi darsni tahlil qilish

**7-mavzu. Questionnaire pédagogique**

Grammatikaga oid bo'lgan mashqlar, topshiriqlar, vazifalar, testlarni tuzish

**Leksikani o'qitish**

**8-mavzu. Apprendre les mots**

Fransuz tilida leksik birliklarni oshirish va so'zlarni o'rganishda nimalarga ahamiyat berish kerak, leksikani kontekstda o'qitish.

**9-mavzu. Travailler avec les dictionnaires**

Fransuz tilida lug'atlar bilan ishlash.

**10-mavzu. Faire les outils lexiques pour passer la leçon**

Dars jarayonida leksik birliklar /iboralar/birikmalarni o'qitish usullari.

**11-mavzu. Travailler avec les bandes-dessinées**

Fransuz tilida yangi leksikani o'rgatishda komiks (rasm, realiya, qo'shiq, multimedia va h.k.) dan foydalanish usullari;

**12-mavzu. Travailler avec les renseignements pedagogiques**

Pedagogik maqsadlarda korpus ma'lumotlaridan foydalanish;

**13-mavzu. Developper les strategies de l'apprentissage du lexique**

Talabalarning leksikani o'rganish strategiyalarini rivojlantirish;

**14-mavzu. Questionnaire pédagogique, evaluation des competences.**

Leksik vazifalarni baholash, leksik vazifa, topshiriq va testlar tuzish.

**Fonetikani o'qitish**

**15-mavzu. L'utilite de la prononciation. Travailler sur les exercices répétitifs**

Fransuz tilini o'qitishda muloqot uchun talaffuzning muhimligi;
- urg'uni (so'z urg'usi, gap urg'usi) o'rgatish;
- intonatsiya, intonatsiyaning munosabatni bildirish va grammatik funksiyalarini o'qitish;
- tovushlarni izolyasiyada va kontekstda o'qitish farqlari;
- fonologik vazifalarni tahlil qilish;
- fonetikaga oid mashq, topshiriq, vazifa, testlarni tuzish.

**O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovasiyalar vazirligining 2018 - yil 26-avgustdagi 3069-son buyrug'iga asosan**

**2-§. Talabalar bilimini baholash mezonlari**

Talabalarning bilimi quyidagi mezonlar asosida:

talaba mustaqil xulosa va qaror qabul qiladi, ijodiy fikrlay oladi, mustaqil mushohada yuritadi, olgan bilimini amalda qo'llay oladi, fanning (mavzuning) mohiyatini tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan (mavzu) bo'yicha tasavvurga ega deb topilganda — **5 (a'lo) baho;**

talaba mustaqil mushohada yuritadi, olgan bilimini amalda qo'llay oladi, fanning (mavzuning) mohiyatini tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan (mavzu) bo'yicha tasavvurga ega deb topilganda — **4 (yaxshi) baho;**

talaba olgan bilimini amalda qo'llay oladi, fanning (mavzuning) mohiyatni tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan (mavzu) bo'yicha tasavvurga ega deb topilganda — **3 (qoniqarli) baho;**

talaba fan dasturini o'zlashtirmagan, fanning (mavzuning) mohiyatini tushunmaydi hamda fan (mavzu) bo'yicha tasavvurga ega emas deb topilganda — **2 (qoniqarsiz) baho** bilan baholanadi.

**Yakuniy Davlat attestatsiya sinovida bitiruvchi talablar uchun xar bir mutaxassislik fanidan 1 donadan jami 4 ta savoldan iborat bilet taqdim etilib:**

1-savolga bitiruvchi mezon asosida to'la javob yozganda, maksimal-25 ball;
2-savolga bitiruvchi mezon asosida to'la javob yozganda, maksimal-25 ball;
3-savolga bitiruvchi mezon asosida to'la javob yozganda, maksimal-25 ball;
4-savolga bitiruvchi mezon asosida to'la javob yozganda, maksimal-25 ball;

**Jami: 100 ballikda**



**Nizomning 1-jadvaliga muvofiq bitiruvchining bahosi qo'yiladi. Oliy ta'lim muassasalarida talabalar bilimini nazorat qilish va baholash tizimi to'g'risidagi Nizomga**

**ILOVA**
**1-jadval**
**Baholashni 5 baholik shkaladan 100 ballik shkalaga o'tkazish JADVALI**

| 5 baholik shkala | 100 ballik shkala | 5 baholik shkala | 100 ballik shkala | 5 baholik shkala | 100 ballik shkala |
|---|---|---|---|---|---|
| 5,00 — 4,96 | 100 | 4,30 — 4,26 | 86 | 3,60 — 3,56 | 72 |
| 4,95 — 4,91 | 99 | 4,25 — 4,21 | 85 | 3,55 — 3,51 | 71 |
| 4,90 — 4,86 | 98 | 4,20 — 4,16 | 84 | 3,50 — 3,46 | 70 |
| 4,85 — 4,81 | 97 | 4,15 — 4,11 | 83 | 3,45 — 3,41 | 69 |
| 4,80 — 4,76 | 96 | 4,10 — 4,06 | 82 | 3,40 — 3,36 | 68 |
| 4,75 — 4,71 | 95 | 4,05 — 4,01 | 81 | 3,35 — 3,31 | 67 |
| 4,70 — 4,66 | 94 | 4,00 — 3,96 | 80 | 3,30 — 3,26 | 66 |
| 4,65 — 4,61 | 93 | 3,95 — 3,91 | 79 | 3,25 — 3,21 | 65 |
| 4,60 — 4,56 | 92 | 3,90 — 3,86 | 78 | 3,20 — 3,16 | 64 |
| 4,55 — 4,51 | 91 | 3,85 — 3,81 | 77 | 3,15 — 3,11 | 63 |
| 4,50 — 4,46 | 90 | 3,80 — 3,76 | 76 | 3,10 — 3,06 | 62 |
| 4,45 — 4,41 | 89 | 3,75 — 3,71 | 75 | 3,05 — 3,01 | 61 |
| 4,40 — 4,36 | 88 | 3,70 — 3,66 | 74 | 3,00 | 60 |
| 4,35 — 4,31 | 87 | 3,65 — 3,61 | 73 | **3,0 dan kam** | **60 dan kam** |

## Asosiy o'quv adabiyotlar va axborot manbalari
### Asosiy adabiyotlar


1. Iryna Bozhko. STYLISTIQUE FRANÇAISE. Суми 2020.
2. Станислав О.В. Stylistique française. Cours théorique et pratique. Луцьк – 2010.
3. Макарова Л. Стилистика французского языка учебное пособие 2010.
4. Mamadaliyev A. La stylistique francaise. Andijon 2025.
5. Абдушукурова Л.А. Stylistique du français moderne. Ташкент, 2004.
6. Blondeau N. Allouache F. Litterature progressive francaise. Paris 2013
7. Oumbarov N., Soatjonov I. Histoire de la littérature française. – T.: Ukitouvchi, 2002.
8. Lucile Charliac, Annie-Claude Motron «Phonétique progressive du Français » (Niveau avancé). Paris, 2006.
9. Saidova L. La science litteraire. Andijon 2024
10. Saidova L. La litterature francaise. Andijon 2023
11. Myriam Abou-Samra Élodie Heu-Boulhat Marion Perrard Amandine Caraco, Edito B2. France 2022.
12. Lucile Bertaux Nicolas Frappe Stéphanie Grindatto Anne-Geneviève Guiot Marina Jung Nicolas Moreau Delf 100% Réussite. (méthode de français B1)Paris 2016.
13. Sylvie Poisson-Quinton, Rein Mimran. Compréhension écrite, Niveau 2. France, 2006.
14. Sylvie Poisson-Quinton. Compréhension écrite, Niveau 3; Expression écrite Niveau 4. Paris, 2006.
15. Sylvie Poisson-Quinton, Rein Mimran. Expression écrite, Niveau 4. France, 2008.
16. Bertocchini P., Costanzo E., Manuel de formation pratique pour le professeur de FLE, Paris, CLE International, 2008.
17. I.Popova, A. Kazakova. Manuel de francais. Moscou,2007
18. Élodie Heu-Boulhat, Marie Gatin Emmanuel, Nicolas Marion Perrard, Violette Petitmengin Caroline, Sperandio Amandine Caraco. Edito méthode de français, niveau B1. Didier FLE, Editión Hatier, 2023.
19. Carla Baracco, Luca Giachino, Stéphanie Grindatto. "Nouvelle generation". Didier FLE, une marque des éditions Hatier, Paris 2023.
20. Michel Barféty, Patricia Beaujouin. Expression orale, Niveau 1. France, 2013.


### Internet saytlari


1. http://www.academia.edu
2. https://biblio-online.ru/
3. www.lewebpedagogique.com
4. www.clemi.org/fr





5. http://www.infrance.ru/francais/theorie/theorie.html
6. www.granddictionnaire.com
7. https://www.twirpx.com/
8. https://ibratfarzandlari.uz/
9. https://uclouvain.be/cours-2024-broma1215
10. www.etudier.com
11. www.francophonnie.hachette-livre.com
12. www.portail.lettres.net
13. www.citationsdumonde.com
14. www.ziyonet.uz
15. www.edu.uz
16. www.ziyouz.uz
17. https://ibratfarzandlari.uz/